

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ASHUROVA NIGORA XAYITOVNA**

**ZAMONAVIY O‘ZBEK ADIBALARI ROMANLARIDA  
AYOL OBRAZI TASVIRI**

*(Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Xaydarova, Jamila Ergasheva  
ijodi misolida)*

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALASAFI DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Philological Sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

<b>Ashurova Nigora Xayitovna</b> <b>Zamonaviy o‘zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasviri</b> <i>(Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Xaydarova, Jamila Ergasheva ijodi misolida)</i> .....	3
<b>Ashurova Nigora Xayitovna</b> <b>The image of a female character in the novels of modern uzbek writers</b> <i>(on the example of works by Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Khaydarova, Jamila Ergasheva)</i> .....	27
<b>Ashurova Nigora Xayitovna</b> <b>Изображение женского образа в романах современных узбекских писателей</b> <i>(На примере творчества Зулфии Гулбой кызы, Рисолат Хайдаровой, Джамилы Эргашевой)</i> .....	51
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> <b>List of published works</b> <b>Список опубликованных работ</b> .....	58

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ASHUROVA NIGORA XAYITOVNA**

**ZAMONAVIY O‘ZBEK ADIBALARI ROMANLARIDA  
AYOL OBRAZI TASVIRI**

*(Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Xaydarova, Jamila Ergasheva  
ijodi misolida)*

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALASAFI DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1949 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Karimov Bahodir Nurmetovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yakubov Islomjon Axmedjanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Burxonova Feruza Abdurazzoqovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz))

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**H.A.Dadaboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filol.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

**N.Jabborov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida adabiy nasr tahliliga doir muammolarni psixologik jihatdan o'rganish va uni anglash zarurati gumanitar sohalarda ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Ayniqsa, filologiya sohasida g'oyaviy pishiq, mazmunan mukammal, sifat jihatidan yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratildi. Epik turning roman janriga xos adabiy va badiiy kanonlar, ularda tasvirlanayotgan ajib xilqat iztiroblari, uning serqatlam ruhiy dunyosini tadqiq etish bilan bog'liq tadqiqotlar izchillik bilan davom ettirib kelinmoqda. Ayol ruhiyatini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos tamoyillarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doimo ijtimoiy muhit, adabiy-ma'naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangi nigoh bilan razm solish, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo'lidan bordi.

Dunyo adabiyotshunosligida romanchilikka oid so'nggi nazariy qarashlar uning oldingi davrlardagi tarixiy evolutsiyasini yangicha anglashga mo'ljallangan. Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy fojialarini to'laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy prinsiplariga xos jihatlar namoyon bo'layapti. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, uning sohir tuyg'ulari, inja va murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqat ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog'liq. Ishda adabiyot taraqqiyotida ayolning o'rni va ahamiyatini ko'rsatish muhim muammo sifatida qo'yildi. Darhaqiqat, ayol psixologiyasi muammosini o'rganish muayyan davr nasrining badiiy poetik jozibadorligini belgilashda ham muhim.

Istiqloq davri o'zbek adabiyotshunosligining xalqaro maydondagi o'rni va milliy madaniy-ma'rifiy merosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, nasriy asarlarning jahon adabiyoti rivojidadagi munosib o'rnini asoslash, keyingi davr adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar merosini o'rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o'zbek adabiyotshunosligi oldiga ham bir qator yangi vazifalar qo'yimoqda. "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"<sup>1</sup>. Bu jarayonda muayyan xalq adabiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma'naviy olamini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. – Тошкент: 2017. 23 декабрь.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”, 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358-son “2019-2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” ma’ruzasi va BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlangan nutqlaridagi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Ishda qo‘yilgan nazariy muammo, ya’ni roman janri takomili va ayol ruhiyati talqini masalasi quyidagi dissertatsiya<sup>2</sup>,

---

<sup>2</sup>Карагода А.П. Социокультурная обусловленность женских образов в искусстве нового времени. Автореф. дис.канд. искусствоведения. – Краснодар, 2019; Халаф А.А. Образ женщины в Арабском искусстве // Вестник ВГУ.Серия филология и журналистика. 2012. № 1. – С.119; <http://maxima-library.org/mob/b/385028?format=read>; Миркушина Н.Л. Образ женщины в русской религиозной философии и культурной традиции конца XIX – начало XX века. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Астрахань, 2014; Норузи Махназ. Женские образы в современной русской и персидской прозе. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Москва, 2011; Афанасьева Ю. Проза М.С. Жуковой: женский мир и женское мировидение в русской литературе второй трети XIX века. Автореф. дис.канд. филол. наук. – Томск, 2006; Воробьева Н.В. Женская проза 1980-2000 годов: динамика, проблематика и поэтика. Автореф. дис. канд. филол. наука. – Пермь, 2006; Пак Чжин Хван. Женские образы в прозе Чехова. Автореф. дис.канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005; Шабатура Е.А. Образ “Новой женщины” советской культуре 1917-1929 годов. Автореф. дис. канд. филол. наук. - Омск, 2006; Мухаббатова Г.Х. Вклад женщин в проведение культурных преобразований в Республике Таджикистан. Автореф. дис.канд. филол. наук. – Душанбе, 2004; Андреева В.Г. Национальное своеобразие русского романа второй половины XIX века. Автореф. дис.канд. филол. наук. – Кострома, 2017; Кашкарева А.П. Рецепция феномена женской

kitob<sup>3</sup>larda ilmiy asoslangan. Biroq istiqlol davri zamonaviy o‘zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasviri muammosi maxsus tadqiqot ishi doirasida o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq “Hozirgi adabiy jarayon masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** zamonaviy o‘zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasvirida ayol psixologiyasining xilma-xil badiiy talqinlari, yozuvchi badiiy mahorati, yangicha ruhiy tahlil vositalarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek va dunyo adabiyotshunosligida roman janri takomili va ayol obrazining o‘rganilish tarixini yoritish;

istiqlol davri o‘zbek romanchiligida yaratilgan ayollar obrazini yoritishda yozuvchining badiiy mahoratini ko‘rsatish;

ayol psixologiyasi va qalb kechinmalarining chuqur badiiy-nazariy vositasi bo‘lgan peyzaj, maktub kabi tasviriy vositalarni aniqlash;

---

эмансипации в творческомнаследии Н.С.Лескова. Автореф дис.канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2017; Шоева Н.А. Проблема женской эмансипации в Повестях современных таджикских писателей. Автореф дис. канд. филол. наук. – Душанбе, 2017; Ли Хи Су. Типология женских характеров в романах и повестях И.С.Тургенева. Автореф дис. канд. филол. наук. – Москва, 1999; Перетягина А.В. Пушкинская традиция в процессе становления и развития жанра тургеневского романа 1850-х - начала 1860-х годов. Автореф дис. канд. филол. наук. – Кострома, 2010; Смирнова О.В. Евгения Тур: судьба женщины-писательницы в России XIX века. Автореф дис. канд. филол. наук. – Тверь, 2005.

<sup>3</sup> Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий танкидий мақолалар, суҳбатлар. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013; Алимухамедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир // Шарқ юлдузи, - 1947, - № 2-3. - Б. 115-137; Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. – Тошкент, 1962; Қўшжонов М. Қодирийнинг тасвирлаш санъати. –Тошкент, 1966; Қўшжонов М., Норматов У. Маҳорат сирлари. – Тошкент, 1968; Шарипова Т. Женские образы в драматургии Хамза Хакимзаде Ниязи. Автореф дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1977; Ризаева К. Некоторые приемы создания положительных образов женщин в послевоенной узбекской прозе. Автореф дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1959; Абдуллаева Ш. Алишер Навоийнинг хотин-қизлар ҳақидаги гуманистик фикрларига доир (Хамса асарида). Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1954; Мусина Г.Г. Историко-типологический анализ женских образов в узбекском народном эпосе. Автореф дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1990; Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида). Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1994; Дуйсенбаев О. Ўткир Ҳошимов ижодида она образининг бадий талқини. Филол. фан. номз.дисс. – Тошкент, 2011; Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадий талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020; Мухаммедова Н. Маргарэт Дрэббл асарларида аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2019; Файзуллаева У. Виржиния Вулф романларида аёл ички дунёсининг тасвирланиши. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Самарқанд, 2020; Мухаммедова Х. Чарльз Диккенс асарларида аёл характери типологияси. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2019; Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек ромanchилигида аёл образи ва унинг қиёсий таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021.

zamonaviy o'zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasvirida sadoqatli, oriyatli ayolning yoritilishida yozuvchi mahoratini dalillash;

jinoyatchi va aybsiz aybdor ayol psixologiyasini o'rganish maqsadida qo'llanilgan badiiy shartli vositalardagi tasodifiylik, ruhiy xastalik, alamzadalik kabi ruhiy qatlamlarni yoritib berish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari", "Mashaqqatlar girdobi" "Armon asirasi", Risolat Haydarovanning "Javzo", Jamila Ergashevaning "Qir ustidagi ayol" kabi ramonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** zamonaviy o'zbek adibalari romanlaridagi ayol ruhiyatining badiiy talqini, realistik an'anaviy roman, noan'anaviy modern roman, she'riy roman, peyzaj, ichki monolog, dialog, tasodifiylik, ramziy-majoziy talqin, kinoyaviy munosabat, tush, maktub, sadoqatli ayol, kayvoni kampir obrazi talqini tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik, germenevtik, sotsiologik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

zamonaviy o'zbek adibalari romanlarida yangi tipdagi ayol obrazining yaratilishida mualliflar mahorati misollar asosida ochib berilgan, ayol adibalarning yangicha ifoda va bayon uslubini yaratish kabi masalalari dalillangan;

romannavis yaratgan ayol obrazi tabiati, prototipi masalasi, portret yaratish mahorati, nutqidagi individuallik hamda noan'anaviy tasvirdagi o'zbek ayolini gavdalandirgani badiiy vositalar orqali aniqlangan;

zamonaviy o'zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasvirida o'zbek onaxoni, sadoqatli, chidamli ayol timsolini mifologik ramziylik konseptida ifodalash, botiniy iztirob va mag'lubiyatda ayolning ma'naviy yuksalish hamda zafarini badiiy aks ettirgani asoslangan;

ayol obrazi tasviri, hilqat psixologiyasida tasodifiylik tufayli yuzaga kelgan ayollar ruhiy tebranishlari, qalb istiroblari, o'y-kechinmalari, orzu-istaklari kabi badiiylik mezonlari ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

roman janri va ayol obrazining xorijda va milliy adabiyotshunoslikda o'rganilish tarixi nuqtayi nazaridan ilmiy asoslangan;

mustaqillik davridagi ayol obrazining yangicha talqini va hozirgi romannavislar ijodi o'zbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab bergani ilmiy jihatdan aniqlangan;

ayol obrazining psixologik dunyosini o'rganishda qo'llanilgan peyzaj, ruhiyat tasviri zamonaviy o'zbek adibalari romanlarida ayol obrazi orqali dalillangan;

ayol ruhiyatini teran ochib berish maqsadida yaratilgan kampirlar aks etgan romanlardagi tasviriylik, kinoyaviy va satirik bayon usuli hozirgi romannavislar ijodi asosida ochilgan;

ayolning jinoyatchiga aylanishi hamda o'z taqdir qismatini o'zgartirishga chog'langan va ayni damda adashgan, aldangani uchun sabab bo'lgan mehnatkash ayol ruhiyatini ishonchli, jonli, hayotiy ochib berishda qo'llanilgan badiiy nutq, psixologik shartlilik ramzlar asosida ko'rsatib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nasriy asarlar tahlilida ayol jahon va o‘zbek nazariyotchi olimlarining poetik qarashlari va zamonaviy adabiy jarayonda erishilgan eng ishonchli, nazariy jihatdan mukammal xulosalari asos qilib olinganligi, bu esa ularni qiyoslash va xulosa chiqarishga imkon berganligi, tadqiq xulosalari va tavsiyalari amaliyotga tatbiq etilgani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyot nazariyasi, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqidchilik, badiiy tahlil, roman janri nazariyasiga doir tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari uchun “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Zamonaviy adabiy jarayon”, “Adabiyot nazariyasi”, “Badiiy asar poetikasi” fanlari va o‘quv kurslari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda hamda ixtisoslik fanlari nazariy bazasini shakllantirishda amaliy vosita bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Istiqlol davri o‘zbek romanchiligida ayol ruhiyati tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

adabiyotshunoslikda ayol obrazi tasviriga xos tamoyillar, dunyo adiblari ijodida ayol obrazlari tahlili natijasida bugungi kun adabiy til me‘yorlarining saqlanish darajasini ko‘rsatishda hamda adiba Zulfiya Qurolboy qizi romanlarida ayollar obrazi talqini, ayollar psixologiyasining yoritilishiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2022-yilda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli “O‘zbek tilida neyning: me‘yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-maydagi 01/10-943-son). Natijada yozuvchilar tomonidan ayollar obrazi talqinining teran va ishonarli tasvirlanishida qo‘llanilayotgan ichki monolog, tush, xotira-xayol, ramziy obrazli tasvir elementlarining keng istifoda etilgani xarakterli;

zamonaviy o‘zbek adibalari Risolat Haydarova va Jamila Ergasheva romanlarida ayol obrazi tasvirida o‘zbek onaxoni, sadoqatli, chidamli ayol timsolini mifologik ramziylik konseptida ifodalash, botiniy iztirob va mag‘lubiyatda ayolning ma‘naviy yuksalishi hamda ayol obrazining psixologik dunyosini o‘rganishda qo‘llanilgan peyzaj, ruhiyat tasviriga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan A-OT-2019-10 raqamli “AM-F3-201908172-O‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-maydagi 01/10-942-son). Natijada mustaqillik davridagi ayol obrazining yangicha talqini va hozirgi romannavislar, xususan adibalar Risolat Haydarova va Jamila Ergasheva ijodi o‘zbek adabiyotida yangi bosqichni boshlab berganini ilmiy jihatdan aniqlashda asos bo‘lgan;

o‘zbek va dunyo adabiyotshunosligida roman janri takomili va ayol obrazining o‘rganilish tarixini yoritish; istiqlol davri o‘zbek romanchiligida

yaratilgan ayollar obrazini yoritishda yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatish; ayol ruhiyati va qalb kechinmalarining chuqur badiiy-nazariy vositasi bo'lgan peyzaj, maktub kabi tasviriy vositalarini aniqlash; zamonaviy o'zbek adibalari Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva romanlarida ayol obrazi tasvirida sadoqat, oriyat kabi qadriyatlarning yoritilishida yozuvchi mahoratini dalillashdagi ilmiy-nazariy qarashlariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Nasr va Adabiy tanqid va adabiyotshunoslik kengashlari dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 9-iyundagi №01-03/760-son ma'lumotnomasi). Natijada hozirgi o'zbek romanchiligida ayol ruhiyatini aks ettirishda ichki monolog, dialog, muallif bayoni, peyzaj va tush kabi badiiy tasviriy vositalardan keng istifoda etilishiga xizmat qilgan;

Zamonaviy o'zbek adibalari romanlarida ayol obrazining (Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova va Jamila Ergasheva ijodi misolida) badiiy talqini singari ilmiy xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanali "Birgalikda o'qiymiz" ko'rsatuvining o'zbek romanchiligiga bag'ishlangan sonining tayyorlanishida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Madaniyat va ma'rifat" telekanalining 2023-yil 16-iyundagi 02-01-03/137-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv ilmiy-nazariy ma'lumotlar bilan boyitilib, ularning ilmiy-ma'rifiy saviyasi oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 16 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy maqola nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, sakkiz fasl, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotshunoslikda ayol obrazi talqinlari masalasi**" deb nomlangan birinchi bobinig birinchi fasli "Adabiyotshunoslikda ayol obrazi tasviriga xos tamoyillar" deb nomlangan. Unda dunyo adabiyotshunosligi hamda unga aloqador sohalarida ayol obrazini va uning nozik ruhiyatini o'rgangan olimlar xususida gap boradi. Shunday olimlar sifatida Ye.A.Shabatura, O.V.Mitina, Pak

Chjin Xvan, N.V.Vorobeva, Noruzi Maxnaz, Yu.Afanaseva, N.V.Vorobeva, N.L.Mirkushina, A.P.Karagoda, A.A.Xalaf, V.G.Andreyeva, A.P.Kashkareva, A.V.Peretyagina, N.A.Shoyeva, G.Muxabbatova, T.N.Ivanova, Li Xi Su, Tao Li, O.V.Smirnovalarni ko'rsatish mumkin. Ularning tadqiqotlarida ayol obrazi va uning jamiyatda tutgan o'rni, mashaqqatli hayot yo'llaridagi tutumlari, psixologik tasvir tamoyillari ilmiy tadqiq qilingan. Yana yirik adabiyotshunoslarimiz I.Sulton, A.Alimuhamedov, M.Qo'shjonov, U.Normatov, Y.Solijonov, Q.Yo'ldosh, B.Karimov, Z.Isomiddinovlarning maqola va kitoblarida hamda T.Sharipova, K.Rizayeva, Sh.Abdullayeva, G.Musina, X.Lutfiddinova, O.Duysenbayev, X.Muxammedova, N.Muxammedova, U.Fayzullayeva, M.O'razboyeva, Yu.Eshmatova, S.Usmanova, N.Xolmahmedova, M.Xolovalarning ham dissertatsiya va maqolalarida ayol, ona, qiz ruhiyatining turli tamoyillari o'rganilgan.

Rus tadqiqotchisi O.V.Smirnova o'zining "Evgeniya Tur: Rossiyada 19-asrdagi yozuvchi ayollar taqdiri" dissertatsiyasida "J.Sand va Ye.A.Ganlarning Ye.Tur ijodiga ta'sirini hisobga olgan holda, ayollar adabiy an'anasi masalasini hal qilish yo'llarini o'rgandik"<sup>4</sup>, deydi. O'sha davr yozuvchi ayollarining taqdiri qay darajada ekanini aytib, rus romanlarida ayol obrazining qiyofasini ko'rsatib beradi va shunday deydi: "Biz 1860-yillarning boshlarida Ye.Turning jurnalistik va nashriyot faoliyatiga zamondoshlarning munosabatini o'rganib chiqdik. Shuningdek, 1860-yillardagi rus romanlarini o'rgandik. O'sha davr romanlari uchun ozod qilingan ayol qahramonlar prototip bo'lib xizmat qilganiga amin bo'ldik<sup>5</sup>. Barcha davrlarda ham ayollar taqdiri dolzarb masala bo'lib kelgan. Chunki ular jamiyatning bir bo'g'inidir.

XVIII asrda Angliyada ham shu masala e'tiborda turgan. Ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi quyidagicha tasnif qilingan edi:

- 1) quyi qatlam vakillari;
- 2) o'rta qatlam vakillari;
- 3) yuqori qatlam vakillari<sup>6</sup>.

Mamlakatning ijtimoiy hayotida aristokrat xonimlar (yunon xudolari kabi) vaqtlarini qanday va qay tarzda o'tkazish tashvishida bo'lgan, xotin-qizlarning o'rta qatlam vakillari o'ziga mos juft topish, kiyinish va o'ziga zeb berish bilan kun o'tkazishganlar. Quyi qatlam vakillarini ertangi kun uchun qayerdan yegulik topish tashvishi bezovta qilgan. Yuqoridagi kabi tabaqalanishlar va tengsizlik masalalari aynan, o'sha davr adabiyotida o'z aks sadosini berdi.

Tadqiqotchi Sevara Usmanovanning "O'zbek va ingliz romanlarida ayol ruhiyati tasviri (Abdulhamid Cho'lpon va Samuel Richardson ijodi misolida) dissertatsiyasida ham shu haqida gap borib, "XVII-XVIII asr boshlarida

---

<sup>4</sup> O.V.Смирнова. Евгения Тур: судьба женщины-писательницы в России XIX века. автореф. дис... канд.филол. наука. – РФ. 2005. – С. 4

<sup>5</sup> O.V.Смирнова. Евгения Тур: судьба женщины-писательницы в России XIX века. автореф. дис... канд.филол. наука. – РФ. 2005. – С. 17

<sup>6</sup> Defoe's Attitude Toward The Position of Women In The Eighteenth Century. Дисс. Маргерет Эндербай. Дэнтон. – Техас, 1967

Yevropada ayollar teng huquqligi uchun olib borilgan uzoq kurashlar, ayollarga baxt-saodat, hurriyat, oilaviy tinchlik o‘rniga baxtsizlik, onalik saodatidan bebahralik, xo‘rlik, kamsitilishga olib kelgan. G‘arb demokratalari qadimda Sharq ayollarining “og‘ir qismati”, “fojeali hayoti” haqida ayuhannos solgan bo‘lsa, Yevropada ham hurriyatga erishgan xotin-qizlarning ahvoli tahsinga sazovor emas edi” – deydi<sup>7</sup>. Ushbu tadqiqotdayam ayollar taqdirida davrning ijtimoiy tengsizliklari aks etgan va ularga jaholatga yuz tutgan jamiyatning bir vakili sifatida qarashgan. Ayolni ona, qiz, turmush o‘rtoq, singil, kelin, xola, amma deb bilamiz. Ayol obrazi har bir adib izlanishlarida alohida bir mehr, chinakam ehtirom bilan tasvirlanadi. Bu hurmat bevosita muallifning o‘zidagi fazilatlar bilan tutashadi. Biz fikr yuritmoqchi ayollar ijodidagi asosiy leytmotiv – ona obrazi ekanligi, bu timsol bevosita muallif biografiyasi bilan uyg‘unlashib ketishi ahamiyatlidir. Bu ifoda usuli, birinchidan, timsolning falsafiy jihatdan kengayishiga yordam bersa, so‘ngra personaj ruhiyatining batafsil yoritilishiga zamin hozirlaydi.

Biz zamonaviy o‘zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasviri xususida fikr yuritar ekanmiz, ularda ma‘naviy-axloqiy muammolar ko‘zga tashlanadi va romanlarni shu jihatdan tadqiq etishga ehtiyoj bor. Ularda turg‘un va kuchli ruhiy kechinma aks etishi tabiiy. Aynan, bu xil mazmunda shaxsiyatning fikr va kechinmalar harakati natijasida ochilishi mumkin bo‘lgan haqiqatni anglash jarayoni evolutsiyasi badiiy o‘zlashtiriladi. Professor Q.Yo‘ldosh bu borada shunday fikrni ilgari suradi: “Psixologizmdan o‘zga yo‘l bilan bunday dinimikani tuyish va anglash mumkin bo‘lmaydi. Ma‘naviy muammolar ko‘proq murakkab kompozitsiyani taqozo qiladi. Negaki, bunday muammo turli g‘oya va fikrlar, taassurotlar va nuqtayi nazarlarning murakkab nisbati tasvirlanishini ko‘zda tutadi”<sup>8</sup>. Bunda badiiy asarni tahlil etishda ularning janr xususiyatlari ham muayyan omillarga sabab bo‘ladi. Epik asarlarda sujetlilik va bayonga moyillik bo‘lib, ruhiyat ifodasi ustunlik qiladi. Badiiy psixologizm personaj ruhiyatini ochib berish, uning xatti-harakatlari, gap-so‘zlarini psixologik jihatdan asoslashga xizmat qilishi zarur.

Mazkur bobning ikkinchi fasli “**Mavzuning dunyo adiblari ijodidagi tasviriga ekskurs**” deb nomlanadi. Jahon adabiyotida ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o‘rni masalasi haqida gap borar ekan, unda gender tenglik mavzusining ko‘tarilishi ko‘p yillar davomida ayollar huquqlarining poymol etilganligiga qarshi jamiyat ziyolilari tomonidan xotin-qizlar huquqlarining himoya etilishi bilan ham bog‘liq.

Islomgacha bo‘lgan davrda Arabiston yarim oroli aholisi o‘rtasida ayolning hech qanday o‘rni ham, qadr-qimmatini ham bo‘lmagan. Bu holat farzandning tug‘ulishidan boshlanardi. Oilada o‘g‘il bola dunyoga kelsa, sevinishar, xursandchiliklar qilishar, qiz tug‘ilganda esa oilada

---

<sup>7</sup>Усманова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири (Абдулҳамид Чўлпон ва Самуэль Ричардсон ижоди мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Андижон, 2021. – Б. 13.

<sup>8</sup> Ўлдош Қ., Ўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б. 310.

motamsarolik hukm surib, tezda farzandni yo‘qotish payiga tushishgan<sup>9</sup>. Islom dinining vujudga kelishi Arabistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni muolaja qiluvchi bir dastur sifatida qarshi olindi. Hayotning barcha jabhalarini qamrovchi Islom dini ayollar haq-huquqlariga ham katta e‘tibor berdi<sup>10</sup>. Islomda ayol va bolalarni o‘ldirish man etilgan. Bu haqida Qur’oni Karimda shunday deyilgan: “(Ey insonlar), bolalaringizni qashshoqlikdan qo‘rqib o‘ldirmangiz. Ularga ham sizlarga ham Biz rizq berurmiz. Ularni o‘ldirish, shubhasiz, katta xatodir” (“Al-Isro”). Islomda ayollarga yaxshi muomalada bo‘lishlik, ayollarga qo‘l ko‘tarmaslik, ayollarni ilm olishlari uchun sharoitlar yaratib berish haqida gap boradi. Bu xususda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) “Sizlarning yaxshilaringiz ayollarga, zavjalariga yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir, ayollar xususida Allohdan qo‘rqingiz. Zero, siz ularni Allohdan omonat o‘laroq olgansiz”,<sup>11</sup> deya ta’kidlaganlar. Ayollarning ilm olish xususida ham Qur’oni Karimda juda ko‘plab hadislarni uchratish mumkin. Shulardan bittasi: “Ilm talab etmoq har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” hadisi yoki “Muslima ayollarning ilm olishini din ta’qiqlagan yoki ta’qiqlaydi iddaosini ilgari sursa, bilingizki, u kimsa Islomga hiyonat etgan” degan hadislar keltirib o‘tilgan. Yuqoridagilardan fahm qilishimiz mumkinki, Islom dini ayollarni ilm olishlarini ta’qiqlamaydi, aksincha, rag‘batlantirish yo‘lidan boradi. Ularning jonlariga ozor yetkazishni katta gunoh deb hisoblaydi va qoralaydi. Adabiyotning jamiyat oldidagi eng muhim vazifalaridan biri kitobxonga yuqorida ta’kidlangan masalalar tub mohiyatini anglatish.

Dunyo adabiyotida ayollarning Afg‘oniston islom respublikasidagi taqdiri qiziqish bilan o‘rganilib kelinayotgan, tanqidiy munozaralarga sabab bo‘layotgan mavzu bo‘lib Xolid Husayniy, Farah Axmadiy, Mir Tamim Ansariy, Anne E. Brodskiy, Veronika Doubley, Deborah Ellis, Doris Lessing, Xarriet Logan, Sunita Mexa, Nilufar Pazira, Deborah Rodriguez, Rozmari Skeyn, Mari Smis, Zoya kabi yozuvchilar aynan afg‘on ayollari mavzusida ijod qilishgan. Demak, ayollarning jamiyatdagi o‘rni adabiyotning mangu mavzulariga taalluqli bo‘lib, buning ifodasini Xolid Husayniy “Ming quyosh shu‘lasi”<sup>12</sup> romanida yuksak mahorat bilan chizgan. Ushbu asar 2007-yilda chop etilgan feminizm ustuvorlik qiluvchi roman bo‘lib, Husayniyning mavqeyi yozuvchi sifatida e‘tirof etilishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek adabiyotida ham ayollar huquqi masalasi ko‘p yillardan buyon e‘tibor markazida turadi. O‘zbek adabiyotida ayol adibalar: Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergashevalar romanlaridagi ayol obrazi muammosining ko‘tarilishi o‘zining o‘chmas ruhiy to‘lg‘amlari bilan hodisa bo‘ldi. Adibalar romanlaridagi ayol obrazi hayotni yorqin aks ettirishi, hayot haqiqatini o‘zida namoyon ettirishi, tabiiyligi va ishonarliligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bir

<sup>9</sup> Азимов А. Ислам ва ҳозирги замон. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 150 б.

<sup>10</sup> Жабборов С. Муслмон ҳуқуқи ва одат нормалари. – Тошкент: Фан, 2001. – 147 б.

<sup>11</sup> Куръони Карим. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 192 б.

<sup>12</sup> Hosseini Kh. A Thousand Splendid Suns. – New York: Riverhead Books, 2007. – 384 P.

adabiy muammo har uch ijodkorni birlashtiradi. Ular ayol erki mavzusini bosh planga chiqarishi bilan boshqa nosirlardan tamoman farq qiladi. Bu holat esa ularning azob va rohatga mushtarak qarashlarida, adabiy-estetik qahramonlarida ko‘rinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayollar ruhiyati tasviri”** deb nomlanadi. Bobning **“Adiba romanlarida ayollar obrazi talqini”** nomli birinchi faslida ayollar taqdiri o‘zbek adabiyotining umumiy mavzusiga aylangani, shunday qilib, keyingi yillarda boshlangan o‘zbek yozuvchilarining ayol huquqlari masalasidagi muholifati yozuvchilarning badiiy ongida tobora ko‘proq ildiz otgani xususida gap boradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ayollar obraziga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotni Maqsud Shayxzoda **“Navoiy ijodida ayol obrazi”**<sup>13</sup> nomli maqolasi bilan boshlab berdi. U Shirin, Mehinbonu, Layli, Dilorom, Ravshanak obrazlarida jismoniy, ijtimoiy, aqliy, madaniy, jangovarlik hislatlari uyg‘unlashganligini ta’kidlaydi. Sh.Abdullayeva esa **“Xamsa”**dagi ayollar obrazini alohida tadqiqot sifatida belgilab nomzodlik ishida o‘rgandi<sup>14</sup>. Olima asosiy e’tiborni jarayonda davr g‘oyalaridan kelib chiqib, Alisher Navoiy o‘zi bino qilgan obrazlar orqali feodal tuzum sharoitida ayollar haq-huquqlarining paymol qilinishiga qarshi kurashgan kabi qarashlarni ilgari surgan. Alisher Navoiy dostonlaridagi ayollarning ilmi, xilmi, oqila va malika darajasigacha ko‘tarib ifodalanishiga shu jihatdan e’tibor qaratiladi.

Mustaqillik davri romanlari badiiyatida quyidagi o‘ziga xos belgilar ko‘zga tashlanadi: a) realizm o‘zining yangi imkoniyatlarini aks etayotgani; b) janrlar aro mutatsiyasi va gibridlashuv hodisasi sodir bo‘lgani; v) metaforik adabiy tafakkurning kengayishi; g) poetik metamorfozalarga e’tibor ortgani; d) o‘quvchi tasavvur dunyosi muallif nigohi bilan uyg‘unlashayotgani; ye) uslub samimiyati o‘quvchini o‘ziga ergashtirib, milliy turmush sahnalari tasviri uning ichki olamida po‘rtanalar xosil qilayotgani; yo) sujet voqealari va vaziyat-holatlar tasviri mozaika bo‘laklari singari berilib, ramzlar tevaragida jipslashib rivoj topayotgani; j) poetik ifoda inson xayolotini yangi dunyolarga yetaklashi; z) gumanistik pafos teranlashayotgani<sup>15</sup>.

Zulfiya Qurolboy qizining **“Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari”** romanida ONA: Hamrobuvi kabi qahramon tutumlari orqali oilaning naqadar yuksak darajasini, unga doimo sadoqat bilan munosabatda bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Hamrobuvi obrazi orqali oilada farzand tarbiyasi, xususan qizlarni oilaga tayyorlash masalalari mahorat bilan yoritilgan. Shuningdek, oila ma’naviyatini yuksaltirishda ayollarning mavqeyi haqida gap boradi. Asarda bosh qahramon sifatida gavdalangan Nazira ham boshqa ayollar singari o‘z oilasi, sevimli yori,

<sup>13</sup> Шайхзода М. Навоий ижодида аёл образи. – Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 58–68.

<sup>14</sup> Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи ва унинг қиёсий таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 17; Абдуллаева Ш. Алишер Навоийнинг хотин-қизлар ҳақидаги гуманистик фикрларига доир (Хамса асариди). Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1954. – Б. 119.

<sup>15</sup> Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: 2018. – Б. 256.

baxtdan masrur yashash umidi bilan Jalilga turmushga chiqqan edi. Hamrobuvining qanchalik oyoq tirib olishlariga qaramasdan “ushlagan joyini uzib oladigan” Rajab momo singari ayollar Hamrobuvining nozik joyi turmush o‘rtog‘idan qolgan bog‘ini gullatib, yashnatish niyati borligi bilan Nazirani o‘ziga kelin qilishga muyassar bo‘ldi. Bu va’dalar aslida sarob ekanligini Hamrobuvi sekin-astalik bilan anglab yetadi.

Zulfiya Qurolboy qizi obrazlar mohiyatining yorqin aks ettiradigan qirralarini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u asar kahramoni Nasibaning ruhiyatidagi evrilishni birgina ovoz detali orqali to‘liq ko‘rsata olgan. Romanda soddagina Nasiba o‘zini tekshiradigan, xatti-harakatlarini taftish qiladigan uy kishisi sifatida tasvirlanadi. Nasiba timsolida adoqsiz mashaqqat, so‘ngsiz azoblar ham ezgulikka umid va odamlarga ishonch tuyg‘usidan ayirolmagan o‘zbek ayoli tasvirlanadi. Oilasi tinchligi, bolalari sog‘ligi, erining xotirjamliginigina o‘ylaydigan bu ayol dunyo muammolarini hal etishni da’vo qilmaydi, shohona hayotni orzu qilmaydi, odam qatori yashashnigina istaydi, xolos. U qahramon ham, donishmand ham, buyuk ham emas. Lekin u odamning tirikligi faqat azoblardan iborat bo‘lishi mumkin emasligini biladi, odamlarga ishonadi va ezgu kunlar kelishiga chindan umid qiladi. Ana shu umidi uni ulug‘laydi. Zero, shayton va uning yo‘lidan ketayotganlargina umiddan mahrumdirlar.

Zurfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari”, “Armon asirasi”, “Mashaqqatlar girdobi” kabi romanlari, hamda uning hikoya va qissalarida ayol obrazi yetakchi qahramon sifati tasvirga tortilgan. Ayni paytda ular o‘z kechmishi orqali ta’bir joiz bo‘lsa, qismat darajasiga ko‘tarilgan qahramonlar hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, ayol obrazi va ayol qismati degan tushuncha bir xil tushuncha emas. Jarayonda adiblar tomonidan ishlanayotgan asarlarda ayrim istisnolarni hisobga olmaganda ayollar ko‘proq juftlikning biri yoki yordamchi obrazlar sifatida gavdalanadi. Yuqorida tilga olingan adiba asarida esa ayol qismatini tasvirlash yetakchi planga ko‘tariladi. Alohida ta’kidlash zarurki, adiba tomonidan yaratilgan romanlarda ayol qismati har doim ham mukammal xarakter darajasiga ko‘tarila olmaganligi, ba’zan hayotdagi ayollarimizning naturalistik qiyofadoshlariga aylanib qolayotganini, tom ma’noda estetik hodisaga aylantirishda iste’dodlari pand berayotgani ham seziladi.

Dissertatsiyaning **“Zulfiya Qurolboy qizi romanlarida ayollar psixologiyasining yoritilishi”** faslida o‘zbek romanlarida ayollarning ijtimoiy qiyofasi ma’lum darajada adabiy an’anaviylik bilan to‘qnash kelganligi, ularning umumiy shiori dastlab g‘oyaviy jihatdan ijtimoiy sinf siyosatiga bo‘ysungan individual tajribaga sodiqlik va mafkuraga mos kelishi haqida gap boradi.

O‘zbek romanining ruhi poeziyaga, dramaturgiyaga ta’sir etdi: she’riy romanlar, romanga monand dramalar yaratildi. O‘zbek adabiyotida tarixiy, tahliliy, biografik, mistik, sarguzasht, fantastik, detektiv, satirik, maishiy romanlar paydo bo‘ldi. O‘zbek yozuvchilari romanchilik mashqini mukammal egallamoqdalar: roman-dialogiya, roman-trilogiya, roman-tetrologiya, hatto turkum-romanlar

yaratilyapti<sup>16</sup>. Aslida, roman tafakkuri ijodiy tajriba, e'tiqod, olam-u odam haqidagi teran qarashlarning samarasi o'laroq paydo bo'ladi. O'z evolutsiya yo'lini bosib o'tadi. Mavzu, badiiy obraz roman tafakkurini aniq adabiy o'zanga yo'naltiradi. Romaniy tafakkurda adib uslubi, tabiati namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, roman tafakkurining yetilishida iste'dod hamda teran mushohadakorlik asos bo'la oladi. Mustabid tizim davrida yaratilgan o'nlab romanlarning unutilib ketishiga yuzaki buyurtmalaru mafkuraviy chaqiriqqa xop deb javob berish sabab bo'ladi, ko'pincha. Adabiy romaniy fikrlash uzviy birlikni inson tabiatidagi mangu tuyg'ularni teran anglatishdan paydo bo'ladi. Roman tafakkurining tez shakllanishida kuchli muhabbat va g'azabning ulushi katta bo'ladi.

O'zbek romanchiligida quyidagi ayol tasvirini uchratish mumkin:

- a) ideal ayol (barcha insoniy fazilatlar va fikrlash tendensiyalari bilan);
- b) taqvodor va ma'rifatli ayol;
- c) onaning vazifasini bajaruvchi ayol;
- d) suyuqli yor sifatida ayol.

Shu munosabat bilan romanlarda ayol mavzusi va ayollarning ozodlik uchun kurashi, ayollarning mavqeyi va ularning jamiyatdagi o'rni, G'arb sivilizatsiyasi bilan ayollar huquqini tan olishda an'anaviy va yangi qarashlar hamda madaniyatning to'qnashuvi, ayol shaxsiyatining ijtimoiy hayotda aks etishi masalasi sifatida qaraladi.

Jarayonda bir qator adiblar ijodida bozor sharoitidagi inson taqdiri mavzusi ustuvor muammo sifatida bo'y cho'zyapti. Ularning asarlaridagi bosh qahramon bozor munosabatlariga moslashib olgan yoki "ortiqcha odam"ga aylangan kishilar. Adabiyotshunos Y.Solijonovga ko'ra, "Har bir adib yolg'izlik fojiasini o'zicha ochib beradi". Olim Tohir Malik, Xurshid Do'stmuhammad, Zulfiya Qurolboy qizi va boshqa adiblarni sanab o'tib, quyidagi belgilariga ko'ra, zamonaviy badiiy roman yozishda o'zbek adabiyoti uchun yangilik bo'lgan o'ziga xos kansepsiyalarni keltirib o'tadi. Bular:

- 1) nasihatgo'ylikdan qochish;
- 2) zamonaviy jamiyatda ayol rolining o'zgarganligiga urg'u berish, ikki yo'l o'rtasida turgan ayolning ruhiy kechinmalarini yaratish;
- 3) ijtimoiy-madaniy, g'oyaviy-axloqiy tiplarning yonma-yon, bir-birlariga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatib yashashi;
- 4) o'zbek xalqining sobiq sho'rolar davridagi hayotini mushohada qilishga urinish;
- 5) jo'shqin sujetlarga intilish ("bozor adiblari" va "bozor adabiyoti"ni yaratgan salbiy tendensiya sifatida);
- 6) tasviriylik va publitsistikaga moyillik<sup>17</sup>.

Jarayonda yozilgan bozor va inson taqdiriga bag'ishlangan badiiy jihatdan yuksak, g'oyaviy tomondan yetuk romanlardagi personajlar xarakterli va

---

<sup>16</sup> Расулов А. Тарих, фалсафа, роман. 16.07.2014. Ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdugafur-rasulov-tarix-falsafa-roman/

<sup>17</sup> Комилова С.Замонавий ўзбек адабий жараёни концепцияси. Шарқ юлдузи журнали, 2015. 5-сон. Б.153-158.

ahamiyatli. Bunday qahramonlar timsolida bozor munosabatlari sharoitida to'g'ri yo'l topolmay yo'ldan ozgan, o'zining milliyligidan judo bo'lgan, ba'zan o'z ixtiyori bilan yoki majburan axloqiy buzuqlik yo'lga kirgan shaxslarning fojiali qismati o'quvchiga ibrat bo'ladigan darajada.

Zulfiya Qurolboy qizining "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" asarlari bevosita bozor munosabati kulminatsion cho'qqisiga chiqqan sharoitda shakllangan, tafakkuri uyg'ongan, o'zligini anglagan va anglay olmagan odamlar toifasi haqida rivoyatlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir adib tanlangan mavzu va muammoga o'z estetik qarashlari va ideali nuqtayi nazaridan yondashadi. Bu asarlarda bozor boshqaruvi sharoitida ayol shaxsining o'rni va qismatiga alohida etibor qaratilgan. "Armon asirasi" romani qahramonlari Nasiba, Hulkar Armon, Zuhra, "Mashaqqatlar girdobi"dagi Nargiza, Sanobar, Gulruhlar va epizodik xarakterdagi ko'plab qahramonlarning har biri o'quvchida turlicha taassurot qoldiradi va buni inkor etib bo'lmaydi. Ishlangan bu obrazlarning har birining xarakteri qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'z g'oyaviy-badiiy pozitsiyasiga ega ekanligini alohida qayd etish mumkin. Biroq qahramon mana shu yukni yozuvchi ko'zlagan manzilga olib bora oldimi, o'z vazifasini qay darajada ado eta oldi, degan savol bilan qaraydigan bo'lsak, ijodkorning badiiy pozitsiyasi ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Bunda ijodkorning ruhiy olami badiiy asar ta'sirchanligini ta'minlaydigan barcha badiiy tasvir va ifoda vositalarining umumlashmasi hisoblanadi. Bunda ijodkor va qahramoni ruhiyati bir-biriga uyg'un tarzda ma'lum takomil yo'lini bosib o'tadi. "Badiiy psixologizm barcha badiiy tasvir va ifoda vositalarining jamuljami sifatida namoyon bo'lib, u inson ichki dunyosini ochib ko'rsatadi"<sup>18</sup>. U asar mazmunini ta'sirchan ifodalashda, obrazlar ruhiy olamini aniq va tiniq tasvirlashda hamda gavdalantirishda ko'rinadi. Bunda yana bir unsur borki, obraz ruhiyati tabiat tasviri bilan uyg'unlashib psixologik parallelizmni yuzaga chiqaradi. "Psixologik parallelizm – badiiy obrazning ruhiy holatini ifodalash niyatida tabiat hodisalari bilan taqqoslab ko'rsatiladigan kompozitsion shakl"<sup>19</sup>. Tashqi kuzatishlar bilan insonning ichki holati badiiy matnda o'z aksini topar ekan, mutanosiblik hosil qila boradi. Bunda muallif nutqi, qahramon so'zlari, o'zgalarning gaplari polifonik tus olib, kontekst yagona maqsad sari yo'naltiriladi. Ko'z oldimizda jonli insonning psixologik holatlari yarq etib ko'rinadi"<sup>20</sup>. Bu bilan yozuvchining mahorati ruhiyat tasviri orqali yanada ortib boradi.

Insoniy taqdirlarning evrilish tarixi shuni ko'rsatyapdiki, katta va kichkina odam o'rtasidagi oraliq ko'p masofani tashkil qilmaydi. "Armon asirasi" asarida favqulodda holatga tushgan odamlarning tarang tortilgan ruhiy holatlari, shu asnodan ularning tabiatida ro'y bergan hissiy-ma'naviy evrilishlar mahorat bilan

<sup>18</sup> Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2018. – Б. 259.

<sup>19</sup> Ҳамраев К. Ҳикоя жанрида бадий параллелизм / "Замонавий ўзбек адабиётшунослигининг янгиланиш тамойиллари" мавзuidaги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент: 2016. – Б. 62.

<sup>20</sup> Қозихўжаев А. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Қисса жанри хусусида. – Тошкент: Фан, 2012 – Б. 213.

ko'rsatib beriladi. Taassufki, asarda yo'qchilik tufayli o'zbek ayolining o'zidagi ezgu sifatlarni yo'qotib borish jarayoni o'ta ta'sirli aks ettirilgan. Ma'naviyat juda yuksak tushuncha, lekin u o'zgaras va turg'un hodisa ham emas. Odamdagi ma'naviy sifatlarning hayotning o'zida, uning ta'sirida shakllanadi, o'zgaradi va yuksalib boradi. Romanda to'g'ri yo'lga qo'yilmagan hayot odamning nafaqat moddiy holatiga, balki ma'naviy-axloqiy tutumlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi mahorat bilan ifoda obyektiga aylantirilgan.

Zulfiya Qurolboy qizi davr ruhini, bozor iqtisodiyoti kun tartibiga qo'yayotgan muammolarni kengroq qamrab olishga intiladi. Ayrim firibgarlarning bo'lar-bo'lmas o'yinlar orqali boyib ketayotgani, kun sayin ko'payib borayotgan xususiy gazetalarning saviyasi, ularning sahifalarida e'lon qilinayotgan yengil-yelpi, oldi-qochdi va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi maqolalar odamlar hayotiga salbiy ta'sir o'tkazayotgani Zuhra obrazi misolida va Hulkarning afsus-nadomatli o'ylari orqali tasvirlanadi. Shunisi muhimki, yozuvchi yaratgan har bir obraz qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'zi mansub bo'lgan toifaning xarakterli xususiyatlarini mujassam toptirishi bilan yozuvchi g'oyaviy niyatining aniq ifodalanishida qo'l keladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Risalat Haydarova ijodida ayol obrazi tasviriga xos xususiyatlar”** deb nomlanadi. Bobning **“Adiba asarlarida ayol obrazi bilan milliy qadriyatlar uyg'unligi”** faslida ayol tutumlari va uning Risolat Haydarova talqinidagi kuzatishlari xususida gap boradi.

Rus olimlari Chexov asarlaridagi ayol obraziga juda ko'p murojaatlar qilgan. Bunga Pak Chjin Xvanning **“Chexov nasrida ayollar obrazi”** dissertatsiyasi misol bo'ladi. Tadqiqotchi mazkur monografik ishida Chexovning ilk ijodiy bosqichida (1880-1887-yillar qissa va hikoyalarida) ayol obrazini yaratish usullari; ikkinchi bosqichdagi Ayollar obrazi transformatsiyasi; 1895-1904-yillarda Chexov nasrida ayollar obrazi evolutsiyasi deya qismlarga ajratib o'rganadi<sup>21</sup>.

Shunday qilib, ayol obrazlarini tasvirlash, avvalo, ko'rib chiqilayotgan davr badiiy ongida siyosiy vosita edi. Masalaning siyosiy va tenglik mohiyati ma'lum ma'noda yozuvchilarga tasvirning balandligi va filigretsiyasiga erishishga imkon bermadi. Ayol obrazini tasvirlashda an'anaviy axloq normalari va milliy istiqbol maqsadlari hisobga olinmadi. Ushbu tendensiya adabiyotda jinsiy tenglik jarayonini ulug'lashga qaratilgan edi va shu bilan birga, keyingi o'n yillikda nasrda juda yaxshi ishlar amalga oshirildi.

Bu adabiyotda turfa taqdirlar, rang-barang ruhiyat manzaralari bor; bir-biriga yaqin va ayni damda bir-biridan butkul farq qiluvchi qalblar galleriyasi bor. Baliqning yagona orzusi ummon bo'lganidek, haqiqiy kitobxon bir umr asl adabiyotga nisbatan bemisl tashnalikni his etib, katta adabiyotga intilib yashaydi<sup>22</sup>. **“Javzo”** romani ana shunday xilma-xillikni o'zida jamlagan asardir. Unda og'ir ijtimoiy-siyosiy muhit, temuriylar sulolasining tanazzulga yuz tutishi va bu

---

<sup>21</sup>Пак Чжин Хван. Женские образы в прозе Чехова. Автореф дис. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005.

<sup>22</sup> Qarang: Жўракулов У. Уммон соғинчи. XX аср жаҳон адабиёти: ҳикоялар. – Тошкент, Ғ. Ғуллом, 2009. – Б.3-9.

holatning insonlar ong-u tafakkuriga salbiy ta'siri kabi katta dardlar hikoya qilingan. O'rta asrlar ayollar uchun juda ham og'ir bo'lgan. Yevropada qiz bolani har qanday o'tkinchi, yo'lovchi joduda ayblashi mumkin edi. XIV asrdan XVIII asrgacha bo'lgan davrda Yevropada "jodugar"likda ayblanib, taxminan 40-50 mingta inson olovda yoqib yuborilgan. Ularning ko'pchiligini esa xotin-qizlar tashkil qilgan<sup>23</sup>. Ayollarga munosabatda O'rta Osiyodagi muhitni ham oqlab bo'lmasdi.

Hukmdorning qizi bo'lmoq baxt kalitiga ega bo'lmoq degani emas. Axir bu dunyoda abadiy narsalar juda kam. Romanda ayol to'g'risidagi tasavvurlar ko'pgina asarlardagi kabi uch xil ahamiyat kasb etadi:

a) Ona – vujudidan joy berib, asrab-avaylab dunyoni ko'rishga sababchi bo'lgan shaxs (bu tushunchaning keng ma'nosida – vatan, qadrdon shahar yoki ona tabiat);

b) Suyukli yor – mahbuba;

d) Jazman – erkaklarni sehrlaydigan va yo'ldan uradigan ayol<sup>24</sup>.

Amir Temur tomonidan tuzilgan ulkan davlat toj-u taxt uchun ayovsiz kurashlar va aka-ukalar, qon-qarindoshlar o'rtasidagi mehr-oqibatning susaygani ta'sirida parchalanib ketadi. Yurtga esa Shayboniyxon boshliq dushman qo'shini bostirib kelgan. Xurosonning har bir burchagida ajal nafasi ufuradi: "Shaharda favqulodda jimlik hukm surardi. Avvallari xuddi shu choqlarda qo'riqchilar mash'alalarini yoqa boshlashar, guzarlardagi choyxonalarda gurunglar qizir, bozorlarning chekkalarida mayda-chuydalar savdosi avjga chiqardi. Endi esa shahar tobora qorayib borayotgan devorlari ortiga yashirinib, tundlanar edi"<sup>25</sup>. Qamal natijasida oddiy xalq tugul, boylar ham och, notinch. Ular uchun burda non-da juda aziz: "Adoqdagi basavlat naqshinkor yog'och darvoza yonidagi supada bir keksa darvish go'ja ichib o'tiribdi. Yog'och qoshiqni har gal katta sopol kosaga solganda qo'lidagi nondan salmoqdor tishlaydi. Nonni chala chaynab, yutib ulgurmay og'ziga taom to'la qoshiqni tiqadi-da, uni ham shosha yutadi". Urush, jang-u jadallar ayollar taqdirida keskin burilish yasaydi. Tadqiqotimiz davomida ba'zi ayol obrazlari haqida boshqa tarixiy asarlarda qanday ma'lumot berilgani bilan qiziqdik. "Javzo" romanida Qorako'zbeimga Shayboniyxondan sevgi maktubi kelgani aytilgan. Nomada quyidagicha she'r berilgan:

Qorako'zlik malaksiymo, karam qilg'il,  
Shifo istab, visolingdin umidvormen<sup>26</sup>.

"Javzo" romanida tarixiy shaxslar Husayn Bayqaro, Shayboniyxon, Xadicha begim, Qorako'zbeimga, Mo'g'il xonim, Xon oyim munosabatlarini ko'rsatish asosiy o'rin tutadi. Ayni chog'da asarda Alisher Navoiy, Muhammad Solih kabi bir necha tarixiy shaxslar nomi ham tilga olinadi va ular sujet tizimidagi voqealarda

<sup>23</sup>Qarang: Karimova Sh. Badiiy asarlarda ayollik ibrat. [www.scientificprogress.uz/](http://www.scientificprogress.uz/) VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601

<sup>24</sup> Qarang: Eshmatova Y. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. - Toshkent, 2020. – B. 137.

<sup>25</sup> Хайдарова Р. Жавзо (тарихий роман). – Тошкент: Гафур Ғулум НМИУ, 2011. – Б. 50.

<sup>26</sup> Хайдарова Р. Жавзо (тарихий роман). – Тошкент: Гафур Ғулум НМИУ, 2011. – Б. 50.

ishtirok etib, o'sha davr voqeliklarini, turmush tarzini, xususan Qorako'zbekim, Xadicha begim obrazlarini yorqinlashtiradi. Asarda Shayboniyxonning ayollari sifatida tilga olingan Xon oyim, Mo'g'il xonim, Xonzodabegim singari obrazlar orqali ayollarning turli xil xarakteri, qarashlari, ruhiyati ochib beriladi. Shunda ayollarning sir-sinoatga boy jihatlariga amin bo'lasan kishi. Aslida ayol dunyosi murakkab, sir-sinoatga to'la.

Ammo romanda to'qima qahramonlar salmog'i ko'proq. Sherzod, Yodgor, Zulayho singari to'qima obrazlar ham roman voqealarida faol ishtirok etadi. Ular garchi yozuvchining xayoli, fantaziyasi asosida yaratilgan bo'lsa-da, bu qahramonlarning so'zlash tarzida, kiyim-liboslarida yashash joylari ko'rinishida temuriylar va shayboniyxonlar davri ayollarining yashash tarzi, o'y-xayollari, intilishlarini tasavvur qilishga, Qorako'zbekimning boshidan kechgan ziddiyatli voqealarni yaqindan his qilishga imkon beradigan xususiyat va sifatlar mavjud. Qaysi bir davr bo'lishidan qat'iy nazar ayollar ko'ngil olamidagi qarashlar, intilishlar, orzu-xavaslar asliyatcha qoladi.

Mazkur bobning ikkinchi faslida **“R.Haydarova “Javzo” romanida ayollar obrazi”** xususida gap boradi. “Javzo” asarida ayollar obrazi haqida gap borar ekan, har qanday badiiy asar voqeligini harakatga keltiruvchi muhim omilardan biri obrazdir. Bizningcha, adiba asarlarida ayol obrazi bilan milliy qadriyatlar uyg'unligi hamda qahramon ruhiyati talqini tushunchasi ham ana shu estetik kategoriyaning bir qismi hisoblanadi. “Javzo” asarida Qorako'zbekim, Mo'g'il xonim, Xon oyim, Xadichabegim, Opoqbegim, Ulug'bib, Gulnurbegim, Ganjina, O'g'ilbib singari faol va rang-barang ayol obrazlari uchraydi. Yozuvchi ularning tashqi portretini chizish orqali ichki ruhiy olamiga kirishga, ayol ruhiyati manzaralarini tasvirlashga intiladi. Qahramonning tashqi portretiga xos yuz, ko'z, qaddi-qomat, rang-ro'y, kiyinishi, o'zini tutishi singari tasvirlar orqali uning ruhiy holati ochib beriladi. Shu ruhiyatga mos tashqi portret detallaridan, masalan, “quyuq qora sochlar”, “qayrilma qosh”, “tiniq yuzlar” kabi bo'yoqlardan foydalanib, aslida bu belgilar nafosat, go'zallikka oshuftalik, muhabbat kabi ijobiy tuyg'ular ifodasi ekaniga urg'u beradi.

Asarda Qorako'zbekim obrazi va uning xarakteri boshqa ayol personajlarga qaraganda keng qamrovda ochib berilgan. Bejizga asar uning o'y-kechinmalari bilan boshlanib, o'limi bilan yakun topmagan. Bu bilan uni bosh qahramon darajasiga ko'tarmoqchi emasmiz. Biroq voqealar silsilasida Qorako'zbekimning o'rni sezilarli darajada. Turmush o'rtog'i Muzaffar Mirzoning yurtini, onasini, suyuqli rafiqasi bo'lishiga qaramay uni tashlab qochgani alam qiladi. Xizmatkori Fotimaning dalda berishiga qaramay, ayol ko'z yoshini to'xtata olmay “Kelmaydur! U qochdi! Meni yog'iyilarga tashlab qochdi” deya fig'on chekadi. Shayboniyxondan sevgi maktubi kelganida esa qarama-qarshi hissiyotlar og'ushida qoladi. Bir tomondan sadoqat va itoat, boshqa tomondan xiyonat va isyon ta'qibida bir qarorga kelishga qiynaladi:

“ - Kim keltirdi deding?”

Fotima malikasining bu savoliga oltinchi marta javob berishi edi”<sup>27</sup>.

Muallif tomonidan malikaning ikkilanish holati “oltinchi marta” so‘zi orqali ko‘rsatiladi. Maktubni bot-bot o‘qishga, uni olib kelgan kishini qayta-qayta so‘rashga majbur qilgan kuch ikkilanish tuyg‘usi edi. Xotiralar qurshovida qolgan Qorako‘z begim o‘zini “tashlandiq xotin” sifatida his qiladi. Alam va qasos o‘tida yonar ekan, eridan o‘ch olishni xohlaydi. Azaldan ayol shirin so‘zning gadosi. U hissiyotlariga nisbatan qilingan adolatsizlikni kechirolmaydi. Ehtimol, Qorako‘z begimni Shayboniixonning she‘riy maktubiga rozilik bildirishga undagan sabab ham shundadir.

Romandagi yana bir faol ayol obrazi Xadichabegimdir. U o‘zi istamagan holda Husayn Bayqaroning ardoqli nabirasi - Mo‘min mirzoning o‘ldirilishiga sabab bo‘ladi. Uning fikricha, “taxt faqat otaga sodiq, sevimli ayoldan dunyoga kelgan o‘g‘ilniki bo‘lishi kerak”<sup>28</sup>. Suyukli xotin esa uning o‘zi. Axir Husayn Bayqaro uni oddiy g‘unchachilikdan Mahdi ulyolik darajasiga ko‘targan. Ayol o‘z o‘g‘li Muzaffar Mirzo qolib Badiuzzamon Mirzoning valiahd bo‘lganiga chiday olmaydi. O‘z manfaatini deb o‘zgalar umri bilan hisoblashmay qo‘yadi. Hatto kundoshi, Badiuzzamonning onasi bo‘lgan Beka Sultonbegimni haramdan haydatishga erishadi. Biroq yog‘iy qamalida qolgach, vijdon azobi uni tinch qo‘ymaydi, qilgan ishlaridan azoblanadi. Tushlari ham almoyi-jalmoyi: “Tunlari hamon halovat yo‘q. Hali ham o‘sha-o‘sha tikka tushgan zinalar, atrofida qorong‘ilik, tosh devorlar...”<sup>29</sup>. O‘tmish xotiralari bir zumga orom bermaydi. Temuriy shahzodalar orasida qal‘ai Ixtiyoriddinda hibsdan bo‘lmaganlari kam. Bu yerda Gavharshod begim va nihoyat uning sa‘y-harakati bilan shahzoda Mo‘min Mirzo ham qatl etilgan. Endi o‘zi butun haram ahli bilan shu qal‘ada bo‘lsa, ishongan o‘g‘li uni-onasini dushman qo‘liga tashlab qochgan, kelini xiyonat qilgan bo‘lsa, suyangani biror yaqini qoldimi? Aksiga Mo‘min Mirzoning jallodi Rahimali ham shu qal‘ada bo‘lsa. Xadichabegim kelajagidan, ajali yaqin ekanligidan qo‘rqadi, umidsizlanadi, talvasa ichida qoladi. Aslida u qo‘lini qonga botirmoqchi emasdi. Toj-u taxt, rashk va ichiqoralik balolari aql tizginini qo‘ldan chiqarishiga sabab bo‘ldi. Tezfe‘l, beqaror, manman, manfaatparast bu ayol haqida kelini Qorako‘z begim “Xadichabegim aytar so‘zini o‘q kabi otib olgach, qulog‘ini misoli kar qilib turadigan ayol edi”, deb ta‘rif beradi.

“Javzo” asaridagi ayollar obrazi nihoyatda rang-barang. Yozuvchi ularning xilma-xil xususiyatlariga diqqat qaratib, birini qat‘iyatli, chidam-bardoshli, boshqasini soddadil, ishonuvchan; yana ayrimlarini xiylagar, manfaatparast, alamzada va hokozo ko‘rinishlarda tasvirlaydi.

Tadqiqotning to‘rtinchi bobi “**Jamila Ergasheva ijodida ayollar obrazining milliy tabiati talqini**” nomli bobining birinchi fasli “**Adiba ijodida ayol obrazi va milliy kolorit**” deb nomlanadi. Unda ajoyib hilqat bo‘lmish ayol – go‘zallik, sadoqat va mehr-muhabbat ramzi ekani haqida gap boradi.

<sup>27</sup> Хайдарова Р. Жавзо (тарихий роман). – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2011. – Б. 167.

<sup>28</sup> Хайдарова Р. Жавзо (тарихий роман). – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2011. – Б. 136.

<sup>29</sup> Хайдарова Р. Жавзо (тарихий роман). – Тошкент: Фафур Фулом НМИУ, 2011. – Б. 129

Adiba Jamila Ergashevaning “Qir ustidagi ayol” romanida ajoyib ruhiy holat, betakror poetik ko‘lam tasviriga duch kelamiz. Romanda Ayol – taqdir so‘qmoqlari adashtirgan damlarda mangu sardoba, qismat to‘fonlariga duch kelgan damlarda mehr qayig‘i, quvonch va tashvishlarimizning doimiy sajdagohi... Ammo uning o‘zi qismat to‘fonlariga adashib qolsachi? Qaddi taqdirning kutilmagan zarbalaridan egilgan damlarda nima qiladi? Asarni o‘qish jarayonida birgalikda javob izlanadi. O‘qish davomida roman qahramonlari bilan birga quvonasiz, iztirob chekasiz, joningizni jafolarga qo‘yib bo‘lsada, ezgulikka, nurga intilasiz. Asarda oila va xalqimizning urf-odatlar ulug‘lanadi<sup>30</sup>. Unda ayol psixologiyasi bilan bog‘liq muammoli vaziyatlarga ham duch kelamizki, uning tahlilida va talqinida ko‘plab peripetsiyalarga duch kelamiz. Inson ruhiyati haqida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim S.L.Rubinshteyn badiiy asarda inson ruhiyati va uning ifodasi haqida shunday deydi: “Ijodkorlar qahramon psixologiyasini ifodalar ekan, aynan uning (qahramonning) kechmishlari – kamolotga erishish yo‘lidagi individual yo‘lni hayotining burilish pallalari sifatida yoritishga intilishlari bejiz emas. Taassufki, inson kechinmalari – bu uning real hayotining subyektiv tomoni, shaxs umr yo‘lining subyektiv aspektidir”<sup>31</sup>.

Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning shakllantiruvchi, shuningdek har bir odamning hayotiga eng kuchli ta‘sir etuvchi, boshqaruvchi ehtiyoj, avvalo oziqlanishdir. Asar qahramonlari Nozima va Hamdam obrazlari ham bundan mustasno emas. Ularning har ikkisi deyarli hech qanday kuchga bo‘ysinmaydi - na aql, na din, na qonunlar, na axloq va urf-odatlar, na pul-boylik, na qarindosh-urug‘chilik va yoki tuyg‘ular bu ikki ehtiyojdan kuchli emas. Agar yuqorida sanab o‘tilganlarning aqalli bittasi bu ikki ehtiyojdan kuchliroq bo‘lganida edi, ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi urf-odatlar, din, axloq va qonunlar ularga hech qanday munosabat bildirmagan bo‘lard.

J.Ergasheva Nozima orqali jamiyatdagi ba‘zi ayollar ruhiyatidagi og‘riqli nuqtalarga bir-bir razm solib o‘tadi. Shu sabab, o‘zbek nasrida bu davrga kelib tag ildizidan ancha uzoqlashgan Nozima tipidagi qahrimonni yaratishga ehtiyoj sezildi. Ularning hayotdagi tutumlarini boshqalar uchun nuqson ekanini anglatish edi.

Ayol zoti qanchalar go‘zal bo‘lsa, shu qadar shafqatsiz bo‘ladikim, bunday beshafqatlik xatto o‘z baxtini ham bo‘g‘ib o‘ldiradi. Chiroyli ayollar (Nozima singari) ko‘p hollarda shuning uchun ham baxtli bo‘la olmaydilar-ki, ular romantik bo‘ladi, o‘ziga ortiqcha baho beradi, ko‘p narsa, ayniqsa e‘tiborni ko‘p talab qiladi, biroq o‘zi boshqalarga e‘tibor ko‘rsata olmaydi. Psixologiyasida narsissizm ustunlik qiladi. Boshqalarning e‘tiborini u baxt emas, balki bu ularning majburiyati deb biladi, baxt eng avvalo mana shu yerdan yo‘qoladi. Ko‘pincha e‘tibor markazidaman, deb xayol qiladi va aslida bu to‘g‘ri. Shuningdek, uning xushtorlari ko‘p bo‘ladi va bu holat o‘zini o‘zi ko‘proq sevishga va ishonchga, ayni damda mag‘rurlik va takabburlikka o‘rgatadi. Uning xayolida istalgan joyda va istalgan paytda boshqasini topa olaman, degan tasavvur bo‘ladi. Vaholanki, u boshqalarga inson sifatida emas, chiroyli buyum sifatida kerak ekanini anglab yetmaydi.

<sup>30</sup> Каранг: Эргашева Ж Қир устидаги аёл. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 2.

<sup>31</sup> Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - Москва: Издательство АСТ, 2020. – С. 11.

Bobning ikkinchi fasli **“J.Ergasheva romanidagi ayollar obraziga xos individual tasvir tamoyillari”** deb nomlanadi. Unda Jamila Ergasheva o‘z qahramonlari tabiatida psixologik tasvir vositasining ana shunday imkoniyatlaridan unumdor foydalangani haqida gap boradi.

“Qir ustidagi ayol”dagi quyidagi tasvirlar bunga misol bo‘la oladi. Qahramonning allaqayerlarda adashishi holati – bu uning hayot yo‘llarida adashib xiyonat ko‘chasiga kirib qolishidir. Egnidagi kiyimlarning birin-ketin tushib yalang‘och holga kelishi esa qilgan, qilayotgan va qilajak xiyonatining oshkor bo‘lishini bildirar edi.

Erkaklar va ayollarning muhabbatidagi farq masalasida gap ketar ekan, asar boshidagi Hamdam va Nozima orasidagi munosabatlar tabiatan ikki jins vakillariga xos tarzda kechadi. Ko‘ngil munosabatlaridan erkak va ayolning muhabbati bir-biridan farq qiladi. Erkakning muhabbati boshlovchi, hujum qiluvchi bo‘ysindirishga intiluvchi shaklda bo‘ladi. Ayollar muhabbati esa kutuvchi, ergashuvchi, davom ettiruvchi, o‘zini himoya qiluvchi shaklda bo‘ladi. Muhabbat borasida aksariyat ayollar o‘z-o‘ziga qarshi bo‘ladi – ruhning ilinj-istaklarini ongi inkor qilib turadi, shu bois ko‘ngil munosabatlarida ayollarning psixologiyasi o‘ta murakkab tus oladi. Erkaklar muhabbati bitta ko‘rishda bo‘ladi hujumchi va bo‘ysindirishga intiluvchi. Ayollarning erkakka bo‘lgan muhabbati ikki turda bo‘ladi: 1.Ayollik muhabbati. 2.Onalik muhabbati. Ayollik muhabbatiga ega bo‘lganlar yuvosh, tezda bo‘ysinuvchi, ergashuvchi shaklda, onalik muhabbati kuchli bo‘lgan ayollar esa boshqaruvchi, hukmronlikka intiluvchi, buyruq berishni xush ko‘ruvchi (go‘yo tarbiyalovchi) bo‘lib, bunday ayollar barcha munosabatlarda erkaklardan ustun turishni xush ko‘radi, aniqrog‘i shunga intiladi. Nozimaning farzandlariga ham munosabati onalik mehri bilan uyg‘un kechmaydi.

Taassufki, ming xil zarbani bir martadan bajargan kishidan emas, bitta zarbani ming marta takrorlagan kishidan qo‘rqish kerak. Bu holat asardagi quyidagi o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi. “U bolaning ko‘z yoshlaridan ho‘l bo‘lib ketgan bir burdagina yuziga tarsaki tortib yubordi. Bola gandarablab orqaga yiqilayotgan edi, uning nozikkina bilaklaridan changallab ushlab, yana bir tarsaki tushirdi. Endi uni to‘xtatib bo‘lmasdi. Yana, yana uraverdi, uraverdi! Bola endi onasining oyoqlarini quchoqlab yig‘lar edi: – Onajon, urmang, urmang, onajon! Boshqa bunday qilmayman, meni kechiring.

– Nozima bolani bir siltab, o‘zidan ajratib oldi-da, yerga itarib yubordi. Yarador qush misol yer bilan bitta bo‘lib yotgan bolani bir tepib, yana ayvonga chiqib ketdi”<sup>32</sup>. Bu voqea bolaning ruhiyatiga qanday ta’sir qiladi?

Albatta, bolani hech qachon va hech qanday sharoitda kaltaklash mumkin emas. Lekin ona bo‘lish qiyin vazifa. Ba’zan turli muammolar kelib chiqadi. Bunday paytlarda boshqa yechimlarni izlashga ishonch hosil qilish uchun “imkonsiz”dan ko‘proq narsani xohlaydi odam. Avvalo jismoniy jazolarning sabablari va oqibatlarini tushunish va muqobil tarbiya usullarini topishga zarurat bor.

---

<sup>32</sup> Эргашева Ж. Қир устидаги аёл. –Тошкент:Ўзбекистон, 2013. – Б. 198.

## XULOSA

Har qanday yaxshi asar qahramon ruhiy olamini teran yoritadi. Bu qoida ayol adibalar asarlari uchun ham xos. Adabiyotshunoslikda ayol obrazi talqinlari masalasi bugungi kundagi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan sanaladi. Ayol adibalarning asarlari shu jins vakillari ruhiyatini yuksak darajada aks ettirganligi, yozuvchining ijodkorona aytganda, - hayotbaxsh ayol nafosatining ustunligi bilan ahamiyatli. Zamonaviy o'zbek adibalari romanlarida ayol obrazi tasviri (Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva ijodi misolida) mavzusi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hozirgi o'zbek ayol adibalari romanlarida, qaysidir ma'noda, jahon adabiyoti romanchiligidagi noan'anaviy ijodiy tajribalarini ham sinovdan o'tkazdi. Bu ijodiy tajribalar ham adabiy ta'sir omiliga aylandi. Hozirgi zamonaviy romanchilikda janr va badiiy-uslub jihatdan nihoyatda turfalanib ketdi. Xususan, uslub jihatdan, an'anaviy realistik romanlar va noan'anaviy modern qissalar vujudga keldi. Shuningdek, qissa janri tabiatida janrlar sinkretizmi yuz berdi. Bir janrning ikkinchi janr tomonga og'ish holatlari kuzatildi. Masalan, roman kurtaklari, yoki romanda boshqa janr unsurlari paydo bo'ldi va bu muammoligicha qolmoqda. Adabiyotshunoslikda ayol obrazi tasviriga xos tamoyillar dunyo adibalari ijodida ayol obrazi tadqiqi va talqinlari misolida gavdalanadi.

2. Adabiyotshunoslikda ayol obrazi talqinlari turli fanlar va san'atning barcha turlarida (kino, raqs, teatr, rassomchilik, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot, san'atshunoslik, psixologiya) muhim muammo sifatida o'rganilmoqda. Zero, ayol odamzod naslini davom ettiruvchi jins, nafosat, aql va mehribonlik timsoli sifatida qadim zamonlardan beri o'rganib kelinadi. Hozirgi o'zbek adibalari romanlaridagi ayol ruhiyati badiiy talqini mavzusi bilan bog'liq jarayonlar aslida xalq ijodi, qolaversa, samoviy kitob "Qur'oni karim" kabi diniy manbalar bilan bog'lanadi, "Qur'oni karim"dagi maxsus oyat va suralar ("Niso" surasi va boshqa suralardagi fikrlar)da ayollarning haq-huquqlari himoya qilingan, ularning yashashi uchun, islomdan oldingi davrda mavjud bo'lgan johiliyaga barham berilgan. Ma'rifatli islom dini bunday johilliklarni to'xtatdi. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy adabiyotda Zulfiya Qurolboy qizi nasrida ayollar ruhiyati tasviri xususida gap borar ekan adibalar romanlarida ayollar obrazi talqini va ayni ijodkor romanlarida ayollar psixologiyasining yoritilishi.

3. Mustaqillik davri o'zbek romannavislari badiiy, adabiy ijodiy tajribalarini to'plashda milliy qissachilikdan tashqari, dunyo romanchiligi tajribalarini o'zlashtirdi va milliy islomiy badiiy talqinlarga yuz burganini ko'rsatdi. Mustaqillik davri o'zbek qissachiligida yaratilgan ayollar obrazi ruhiyatining badiiy talqini muammosi yuzasidan o'tkazilgan tahlillar zamonaviy romanchilik mafkuralardan xoli haqiqiy badiiy durdona romanlar yaratilishi hamda ayol obrazining poetik takomili yangi asr boshlaridagi o'zbek nasrida fenomenal hodisa ekani isbotlangan. Risolat Haydarova ijodida ayol obrazi tasviriga xos xususiyatlar uning asarlarida ayol obrazi bilan milliy qadriyatlar uyg'unligi aks

etgani ko'rsatiladi. Risolat Haydarovanning "Javzo" romanida ayol ruhiyatining takomoli va tarixiy evolutsiyasidagi o'rni ko'rsatilgan.

4. Hozirgi o'zbek romanchiligida yaratilgan ayollar obrazi va ruhiyatida sodir bo'lgan alamzadalik va ruhiy kasallik tufayli sodir bo'lgan jinoyatchilik va qotillik sahnalari adibalar romanlarida yanada teran tahlil qilindi. Romannavislar jinoyatga qo'l urgan buzuq ayol obrazini yartishda har biri turli manbalar: hayotiy yoki adabiy manbalardan ta'sirlanadi. Jumladan, Jamila Ergasheva ijodida ayollar obrazining milliylik tabiati talqini va adiba ijodida ayol obrazi va milliy koloritning gavdalanish tamoyillari ko'rsatildi. Adiba romanidagi ayollar obraziga xos individual tasvir hayotda sodir bo'lgan bir sud tafsilotini qissaga asos qilib olgan holda, badiiy uslubdagi an'analarini davom ettiradi hamda tasodifiylik badiiy shartlilik vositasidan unumli foydalangani isbotlandi.

5. Mustaqillik davri o'zbek nasrlari badiiy, adabiy ijodiy tajribalarini to'plashda milliy romanchlikdan tashqari, dunyo romanchiligi tajribalarini o'zlashtirdi va milliy islomiy badiiy talqinlarga yuz burganini ko'rsatdi. Bu davr o'zbek nasrida yaratilgan ayollar obrazi ruhiyatining badiiy talqini muammosi yuzasidan o'tkazilgan tahlillar zamonaviy asarlarning mafkuradan xoli haqiqiy badiiy durdona asarlar ekani hamda ona obrazining takomili yangi asr boshlaridagi o'zbek nasrida alohida hodisa ekani dalillandi.

6. Istiqlol davri ayol romannavislari dunyoqarashi yanada yuksalishi, poetik mahorati ortishi uchun quyidagicha imkoniyatlar ochildi: a) xalq ijodi va klassik adabiyot, tarixiy-madaniy merosning ma'naviy, shakliy-uslubiy, tasviriy tajribalari bilan mustahkam robita tiklandi; b) turli fan va san'at sohalari yutuqlari bilan yaqindan tanishish harakatlari kengaydi; v) ijodkorlar istiqlol davridagi uyg'onish va yaxlit o'tgan asrlarda millat ziyolilari ongida kechgan, u yoxud bu ko'rinishda namoyon bo'lgan kurashchanlik ruhiga ma'nau yaqinlashdi; g) istiqlol davri adabiyoti tufayli badiiy matn tagqatlamida yashirin tarzda ifodalangan iztirob va armonli rang-barang tuyg'ular, latif orzu-kechinmalarning milliy tabiati anglab yetildi; d) ustoz adiblar mahorat maktabidan ijtimoiy fikrni poetik g'oyaga aylantirish va qahramonlar harakati, fikr-tuyg'ulariga ko'chirish tajribasi o'zlashtirildi; e) jahon nazariy-falsafiy, adabiy-estetik tafakkuri yutuqlari milliy asosda sintez qilindi. Mustaqillik davrida nashr qilingan ayol adibalar romanlari shu yangilangan voqelik maxsuli hisoblanadi.

7. Tarixiy romanlar badiiy tasvirida shaxs botiniy olamida kechuvchi ichki harakatlarga e'tibor ortdi. Ayol adibalar romanlarida poetik voqelik mohiyatini jonli muloqot – dialogga kirishish tashkil eta boshladi. Sababiki inson tabiatan doimiy muloqot vaziyatida yashaydi. U odamlar bilan, shuningdek "men" va undan boshqa barcha ("o'zga") sifatidagi g'ayriqutb bilan muloqotga kirishadi. Sanoqsiz shakllarda namoyon bo'ladigan bunday kommunikativ murakkablikning poetik ifodaga ko'chishi badiiy asarning ishonchlilik darajasini orttirdi. Intellektual kitobxon ma'naviy-ruhiy ehtiyojini qondirdi. Ayni paytda, aksariyat romanlarning keng ommalashuvini ham sustlashtirgani aniqlandi.

8. Zamonaviy ayol adibalar ijodi tabiati muallif nuqtayi nazari yoki asar qahramonlari gavdalanishi bilan ochiqilanadi. Yozuvchi ayollarning tashqi

portretini chizish orqali ichki ruhiy olamiga kirishga, ayol ruhiyati manzaralarini tasvirlashga intiladi. Qahramonning tashqi portretiga xos yuz, ko‘z, qaddi-qomat, rang-ro‘y tasviri orqali ularning ruhiy holati ochib beriladi. Shu ruhiyatga mos tashqi portret detallaridan foydalanib, aslida bu tuyg‘ular mayda havaslar, kek, adovat, hasad kabi salbiy tuyg‘ular ifodasi ekaniga urg‘u beradi. Zamonaviy romanlarda o‘ziga xos chizgilardan foydalanib, salbiy yoki hajviy tipda yaratilgan ayollar obrazini yanada bo‘rttirib tasvirlaydi.

9. Ayol dunyosidagi ruhiy muvozanatning buzilishi esa o‘zi istagan hayot tarziga ega emaslik; mehrga intilish; ayolni suyib, erkalab, suydinib yashashga qodir insonni izlab topolmaslik; o‘zi orzu qilgan to‘kislik, baxt uchun ovoralik; bokira tuyg‘ularning armonga, sarobga aylanishi; mehr-muhabbatga zorlik yoki ayolning pok orzulari va tuyg‘ularining o‘zgalar tomonidan yanchilishi, aldanish alam- iztiroblari tufayli yuz berishini o‘zbek qissanavislari o‘z asarlarida xilma-xil obrazlar ruhiyati talqini orqali ochib berayotirlar. Zamonaviy romanchilikka xos bu xususiyat ayol ruhiyati manzaralari epik miqyoslarda gavdalanayotganligidan darak beradi. Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva ijodi misolida ayollar ruhiyatini badiiy kashf etishda an‘anaviy realistik uslubdan foydalanadi. Shu bilan bir qatorda ularning asarlarida ramziy badiiy detallar, mantiqiy motivni kuzatish mumkinki, ular ayol ruhiyatini ishonarli ochishga xizmat qilgan.

10. Zamonaviy tarixiy romanchilikda gibril asarlar yuzaga kelishi, simvolik tasvirga e‘tibor ortishi voqelik tasvirida obyektiv reallik bilan kechinma uyg‘unlashuvining natijasi ekani, poetik ifodada dunyoning ilg‘or adiblari asarlarida kuzatilgan rang-barang epik bayon yo‘sinlari milliy asosda o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan novatorona uslub va usullarni qo‘llash orqali turli nuqtayi nazarlarni muayyan roman semantikasi va kompozitsion markazi to‘garagida yaxlit uyg‘unlashtirish natijasi ekani hamda milliy romanlarda badiiy tasvir predmeti yangilanayotgani janr taraqqiyotining ilgari bosqichlarida kuzatilmagan kompozitsiya va shakldagi asarlar struktural-semantik tabiatini tushunib, his qiluvchi o‘quvchilar shakllanishi ehtiyojini yuzaga chiqargani yangi paradigma paydo bo‘lishining dastlabki belgilari ekani asoslandi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES  
DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE,  
LITERATURE AND FOLKLORE**

---

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**ASHUROVA NIGORA XAYITOVNA**

**THE IMAGE OF A FEMALE CHARACTER IN THE NOVELS OF  
MODERN UZBEK WRITERS**

(on the example of works by Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova,  
Jamila Ergasheva)

**10.00.02 – Uzbek Literature**

**DISSERTATION ABSTRACT FOR THE DOCTOR OF PHILOSOPHY DEGREE (PhD)  
OF PHILOLOGICAL SCIENCES**

**Tashkent – 2024**

**The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission with the number B2021.3.PhD/Phil1949.**

The dissertation has been prepared at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume) is posted on the website of the Scientific Council ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) and on the "ZiyoNet" information and educational portal ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Scientific consultant:** **Karimov Bahodir Nurmetovich**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Official opponents:** **Yakubov Islom Axmedjanovich**  
Doctor of Philological Sciences, Professor

**Burxanova Feruza Abdurazzoqovna**  
Doctor of Philosophy in Philology, Associate  
Professor

**Leading organization:** **Termez State University**

The defense of the dissertation will be held at the meeting of the Scientific Council numbered DSc.03/30.12.2019.Phil.19.01 at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ at \_\_\_\_\_. 2024 (Address: 103 Yusuf Khos Hajib street, Yakkasaray district, Tashkent, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz))

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered with the number \_\_\_\_-\_\_\_\_). (Address: 103, Yusuf Khos Hajib street, Yakkasaray district, Tashkent, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

The abstract of the dissertation was distributed on "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_, 2024.  
(Report of the digital register of \_\_\_\_ on \_\_\_\_\_ of 2024).

**H.Dadaboyev**  
Chairman of the scientific council that  
grants scientific degrees, Doctor of  
Philological Sciences, Professor

**Q.U.Pardayev**  
Academic secretary of the academic  
council that grants academic degrees,  
Doctor of Philological Sciences,  
Associate Professor

**N.Jabborov**  
Chairman of the scientific seminar  
under the scientific council that grants  
scientific degrees, Doctor of Philological  
Sciences, Professor

## INTRODUCTION (abstract of doctoral dissertation)

**The relevance and actuality of the dissertation.** The need for psychological study and understanding of the problems associated with the analysis of fiction in world literature puts serious issues on the agenda in the humanitarian sphere. Especially in the field of philology, opportunities have been created for conducting scientific research that is potentially mature in ideas, advanced in content and extremely new in quality. The literary and artistic canons characteristic of the genre of the epic novel, the suffering of the strange characters depicted in them, and the exploration of its multi-layered spiritual world continue consistently. An analytical study of the female psyche is important for revealing the principles of the spiritual world, worldview and way of thinking of a person. The literary process is always formed in close connection with the social environment, literary, spiritual, and cultural life. After all, the renewal of consciousness and mentality of humanity is reflected mainly in literature and art. In this, the science of literary criticism has also taken the path of depicting its subject in a new form, deepening the understanding of the problems associated with the female psyche.

The latest theoretical views on the novel in world literature are aimed at a new understanding of its historical evolution in previous periods. The full reflection of women's spiritual tragedies in fiction reveals features inherent in the advanced creative principles of world prose. In the literary process of describing the role of a woman in public life, her magical feelings, her sensitive and complex spiritual world, philosophical-psychological, symbolic-metaphorical imagery dominates in the literary process. In this case, the most important task is related to the mentality of a certain character, a new interpretation of images and expressions. An important task in the work was to show the role and importance of women in the development of literature. In fact, the study of the problem of female psychology is also important in determining the artistic and poetic attractiveness of prose of a certain period.

The importance of studying the role of Uzbek literary criticism in the international arena and the national cultural and educational heritage of the period of independence, the need to comprehend values, delve into the essence of fiction in the context of globalization today, to justify the worthy place of prose works in the development of world literature, the literature of the next period requires studying the heritage of influential artists. Today's process of reforms in the sphere of culture and education poses a number of new challenges for Uzbek literary studies. "Today we are moving on the path of innovative development aimed at radical renewal of all spheres of state and society. This is not in vain, of course. Because who will win in today's fast-paced world,? A state based on new ideas and innovation achievements"<sup>33</sup>. In this process, the role and significance of a work of a certain national literary thought in the elevation of the spiritual world of humanity is determined by its specific characteristics.

---

<sup>33</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. – Тошкент: 2017. 23 декабрь.

Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 13, 2016 PF-4797 “On establishment of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek language and literature”, No-PF-5847 dated October 8, 2019 “On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030”, No-PF-5850 dated October 21, 2019 “On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language” Decision No. PQ-3271 of September 13, 2017 “On the program of comprehensive measures to develop the publishing and distribution system, increase and promote book reading and reading culture”, PQ-3652 dated April 5, 2018 “On measures to further improve the activities of the Union of Writers of Uzbekistan” PQ-3160 dated July 28, 2017 “On increasing the efficiency of spiritual and educational work and raising the development of the sphere to a new level”, PQ-4358 dated June 17, 2019 “2019 -Decisions of the President of the Republic of Uzbekistan on measures to radically improve the system of training qualified personnel in high demand and develop scientific potential in 2023 at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek”, The speech of the President of the Republic of Uzbekistan at the meeting with representatives of creative intellectuals of Uzbekistan on August 3, 2017 “Development of literature and art, culture is a solid foundation for raising the spiritual world of our people” and speech at the 72nd session of the UN General Assembly. This dissertation research serves to a certain extent in the implementation of the tasks specified in the speeches and other regulatory and legal documents related to this activity.

**The relevant research priority of science and developing technology of the Republic.** This research corresponds to the priority direction of the republican scientific and technical development. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and a democratic state” has been done.

**The degree that the problem has been studied.** The theoretical problem posed in the work, namely the problem of improving the genre of the novel and interpreting the female psyche, is scientifically substantiated in the following dissertations<sup>34</sup> and books<sup>35</sup>. However, the problem of the image of women in the

---

<sup>34</sup>Карагода А.П. Социокультурная обусловленность женских образов в искусстве нового времени. Автореф. дис.канд. искусствоведения. – Краснодар, 2019; Халаф А.А. Образ женщины в Арабском искусстве// Вестник ВГУ.Серия филология и журналистика. 2012. №1. – С.119;<http://maxima-library.org/mob/b/385028?format=read>; Миркушина Н.Л. Образ женщины в русской религиозной философии и культурной традиции конца XIX – начало XX века. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Астрахань, 2014; Норузи Махназ. Женские образы в современной русской и персидской прозе. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Москва, 2011; Афанасьева Ю. Проза М.С. Жуковой: женский мир и женское мировидение в русской литературе второй трети XIX века. Автореф дис.канд. филол. наук. – Томск, 2006; Воробьева Н.В. Женская проза 1980-2000 годов: динамика, проблематика и поэтика. Автореф. дис. канд. филол. наука. – Пермь, 2006; Пак Чжин Хван. Женские образы в прозе Чехова. Автореф дис.канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005; Шабатура Е.А. Образ “Новой женщины” советской культуре 1917-1929 годов. Автореф дис. канд. филол. наук. – Омск, 2006; Мухаббатова Г.Х. Вклад женщин в проведение культурных преобразований в Республике Таджикистан. Автореф дис.канд. филол. наук. – Душанбе, 2004;

novels of modern Uzbek writers of the period of independence has not been studied within the framework of special research work.

**Relevance of the dissertation research with the plans of the scientific research works of higher education.** The research was carried out in accordance with the scientific research plan of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi within the framework of the topic “Issues of the current literary process”.

**The aim of the research work** is to reveal various artistic interpretations of female psychology, writer’s artistic skills, and new means of mental analysis in the depiction of the female character in the novels of modern Uzbek writers.

**The objectives of the research work are:**

coverage of the history of the development of the novel genre and the study of female character in Uzbek and world literary studies;

---

Андреева В.Г. Национальное своеобразие русского романа второй половины XIX века. Автореф дис.канд. филол. наук. – Кострома, 2017; Кашкарева А.П.Рецепция феномена женской эмансипации в творческомнаследии Н.С.Лескова. Автореф дис.канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2017;Шоева Н.А. Проблема женской эмансипации в Повестях современных таджикских писателей. Автореф дис. канд. филол. наук. –Душанбе,2017; Ли Хи Су.Типология женских характеров в романах и повестях И.С.Тургенева.Автореф дис. канд. филол. наук. – Москва,1999;Перетягина А.В.Пушкинская традиция в процессе становления и развития жанра тургеневского романа 1850-х - начала 1860-х годов. Автореф дис. канд. филол. наук. – Кострома, 2010; Смирнова О.В.Евгения Тур: судьба женщины-писательницы в России XIX века. Автореф дис. канд. филол. наук. – Тверь, 2005.

<sup>34</sup>Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий танқидий мақолалар, суҳбатлар. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013; Алимухамедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир // Шарқ юлдузи, - 1947, - № 2-3. - Б. 115-137; Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. – Тошкент, 1962; Қўшжонов М. Қодирийнинг тасвирлаш санъати. –Тошкент, 1966; Қўшжонов М., Норматов У. Маҳорат сирлари. – Тошкент, 1968; Шарипова Т. Женские образы в драматургии Хамза Хакимзаде Ниязи. Автореф дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1977; Ризаева К. Некоторые приемы создания положительных образов женщин в послевоенной узбекской прозе. Автореф дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1959; Абдуллаева Ш. Алишер Навоийнинг хотин-қизлар ҳақидаги гуманистик фикрларига доир (Хамса асарида). Филол. фан. номз. дисс.– Тошкент, 1954; Мусина Г.Г. Историко-типологический анализ женских образов в узбекском народном эпосе. Автореф дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1990; Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида). Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1994; Дуйсенбаев О. Ўткир Ҳошимов ижодида она образининг бадиий талқини. Филол. фан. номз.дисс. – Тошкент, 2011; Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020; Мухаммедова Н. Маргарэт Дрэббл асарларида аёл образи ва унинг ижтимоий-эстетик талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2019; Файзуллаева У. Виржиния Вулф романларида аёл ички дунёсининг тасвирланиши. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Самарқанд, 2020; Мухаммедова Х. Чарльз Диккенс асарларида аёл характери типологияси. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2019; Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи ва унинг қиёсий таҳлили. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2021.

demonstrate the artistic skill of the writer in highlighting the image of a woman created in Uzbek novels of the period of independence;

identify such visual means as landscape and writing, which are deep artistic and theoretical means of female psychology and emotional experiences;

prove the writer's skill in depicting the image of a woman in the novels of modern Uzbek writers;

the study of such mental layers as chance, mental illness, grief in artistic means used in the study of the psychology of the criminal and the innocent guilty woman.

